



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2024- YIL YANVAR-SENTABR OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)



**Tel.: 71-202-86-66**  
**[www.toshvilstat.uz](http://www.toshvilstat.uz)**



## Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari



(2024- yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 681 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 425 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 6,3 % i ) Chirchiq shahriga, 188 tasi (2,8 %) Yangiyo'l shahriga, 957 tasi (8,9 %) Zangiota tumaniga, 578 tasi (7,5 %) Qibray tumaniga va to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2024- yil 1-oktabr holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, % da
<b>Jami:</b>	<b>6 681</b>	<b>1 019</b>	<b>100,0</b>
Nurafshon sh	151	34	2,3
Olmaliq sh	246	36	3,7
Angren sh	343	52	5,1
Bekobod sh	157	23	2,3
Ohangaron sh	163	22	2,4
Chirchiq sh	425	42	6,4
Yangiyo'l sh	188	19	2,8
Oqqo'rg'on	154	34	2,3
Ohangaron	235	36	3,5
Bekobod	173	50	2,6
Bo'stonliq	245	37	3,7
Bo'ka	93	37	1,4
Quyichirchiq	244	35	3,7
Zangiota	957	114	14,3
Yuqori Chirchiq	401	56	6,0
Qibray	578	66	8,7
Parkent	443	126	6,6
Piskent	119	17	1,8
O'rta Chirchiq	273	47	4,1
Chinoz	188	22	2,8
Yangiyo'l	335	48	5,0
Toshkent	570	66	8,5

## Toshkent viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 98 346,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 107,3 % ni tashkil etdi.



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining besh yillik ko'rsatkichlari o'sish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o'sayotganligini ko'rsatadi.


## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Toshkent viloyatida 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 32 000,1 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to'g'ri kelish ko'rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri kelgan sanoat mahsulotlari ko'rsatkichlari shuni bildiradiki, o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o'sganligi hamda aholi sonining ham o'sib borayotganligini bildiradi.



*\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 83 228,7 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 84,6 % ni, tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **3 861,7** mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **3,9 %** ini tashkil etdi.



### Yanvar- sentabr

2022- y	2 867,4 mlrd. soʻm
2023- y	3 344,4 mlrd. soʻm
2024- y	3 861,7 mlrd. soʻm

### FHI, % da

2022- y	85,6 %
2023- y	109,4 %
2024- y	92,8 %

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **83 228,7** mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **108,3 %** ini tashkil etdi.

### Yanvar- sentabr

2022- y.	58 122,4 mlrd. soʻm
2023- y.	64 987,1 mlrd. soʻm
2024- y	83 228,7 mlrd. soʻm

### FHI, % da

2022- y.	105,0 %
2023- y.	101,8 %
2024-	108,3 %



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab  
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'lish sur'ati**  
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)

Sulfat kislota		Sement		Pishloq va tvorog	
2024	100,4	2024	141,1	2024	85,1
2023	87,2	2023	67,2	2023	71,3
2022	105,8	2022	87,3	2022	105,0
O'simlik yog'i (tozalangan)		Sement klinkeri		Yumshoq bug'doy va spelta uni	
2024	180,4	2024	79,1	2024	85,1
2023	230,0	2023	65,5	2023	71,3
2022	220,0	2022	52,7	2022	105,0
Pivo		Aroq ming litr (100% spirt)		Uzum vinosi	
2024	98,4	2024	161,5	2024	61,7
2023	102,1	2023	62,5	2023	38,5
2022	70,8	2022	70,8	2022	240,0
Karbamid		Paxta chigiti		Kalava ip	
2024	111,0	2024	113,1	2024	113,5
2023	100,4	2023	106,2	2023	72,0
2022	83,1	2022	82,6	2022	79,0

2024- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 25,3 ming tonna o'simlik yog'i (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 180,4 % ni tashkil etgan), 2,0 ming tonna suyultirilgan sut (110,4 % ni), ishlab chiqarilgan.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-sentabr	2024- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
<b>Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.</b>	200,2	170,5	-29,8
<b>Shakar, ming t.</b>	316,2	219,8	-96,3
<b>Paxta tolasi ming t.</b>	30,7	22,8	-7,9
<b>Portlandsement, ming t.</b>	2299,0	3243,3	944,3


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 8,9 % (2023- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 139,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 8,0 % (2023- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,6 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,2 % (2023- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,1 % (2023- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,8 %) ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,2 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali 10,1 % (7,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 51,4 % (50,9 %) va quyi texnologiyalisi – 24,6 % (17,3 %) ni tashkil etdi.






## Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati 36 465,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 37,1 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 104,7 % ni tashkil etgan.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati 29 918,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 40,1 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 92,7 % ga koʻpaydi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 99,7 % ni ishlab chiqarish hajmi esa 3679,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 95,1 % ni tashkil etgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2024- yilning yanvar- sentabr oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,3 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 102,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 11080,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,8 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 124,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 2864,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 114,6 % ni tashkil etdi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 98,6 % ga o'sgan holda ishlab chiqarish hajmi 4753,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 106,3 % ni tashkil etgan.




## Kiyim ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 %, fizik hajm indeksi 93,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 3000,3 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 107,8 % ni tashkil etgan.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2024- yilning yanvar- sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 % ni, fizik hajm indeksi 103,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4535,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 % ni fizik hajm indeksi esa 94,3 % ni tashkil etgan.




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar- sentabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 190,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2326,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni fizik hajm indeksi esa 135,2 % ni tashkil etgan.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 133,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2455,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni fizik hajm indeksi esa 87,5 % ni tashkil etgan.

### Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar- sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 107,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2341,8 mlrd. so‘mni tashkilettdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni fizik hajm indeksi esa 131,9 % ni tashkil etgan.




### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 243,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1917,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni fizik hajm indeksi esa 132,6 % ni tashkil etgan.




### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 %, fizik hajm indeksi 3,9 martaga o‘tdi hamda ishlab chiqarish hajmi 545,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni fizik hajm indeksi esa 62,5 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 959,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,1 % ni) tashkil etadi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 605,3 mlrd. so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-sentabr	2024- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt s	15 084,8	15 196,5	111,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 236,7	2 393,1	156,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 296,5 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,9 % ni) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar- sentabr	2024- yil yanvar- sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	48,1	54,8	6,7
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	0,14	24,1	23,9


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 54,8 mlrd. so'm yoki 1,3 martaga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek, Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 24,1 mlrd. so'm va 2,3 martaga ko'paygan.

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 16 790,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,1 % ni tashkil etdi.


### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2023- yil yanvar- sentabr



■ Xorijiy korxonalar  
■ Boshqa korxonalar


2024- yil yanvar- sentabr



■ Xorijiy korxonalar


### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd. so‘m)da

2023- yil yanvar- sentabr



Xorijiy korxonalar ■  
Boshqa korxonalar ■

2024- yil yanvar- sentabr




Xorijiy korxonalar ■  
Boshqa korxonalar ■

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida (jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 24 738,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 25,2 % ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi oʻsib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu koʻrsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi oʻsib borayotganligini hamda eksport hajmi koʻpayotganligini bildiradi.

**Jami sanoat  
mahsulotlari hajmidagi  
ulushi,  
% da**



**Kichik biznes subyektlari  
tomonidan ishlab chiqarilgan  
sanoat mahsulotlari hajmi  
(mlrd. soʻm)**

